

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA LOYIHA TEKNOLOGIYASINI QO'LLASHNING SAMARALARI

Mahfuza G'ofurova,

Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchisi (PhD)

mahfuzagofurova@gmail.com

Jahonbu Mamasoliyeva,

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning mustaqil fikrlash, va ijodkorligini har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida oshirish va boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'zlashtirishda loyihalashtirish ishlarini yo'lga qo'yish, ularni o'quvchilarga tushuntirish, tashkillash va nazorat qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tadqiqot, loyiha, loyihalash, texnologiya, guruh bilan ishlash, mustaqil ishlash ko'nikmalari, natija

EFFECTS OF APPLYING PROJECT TECHNOLOGY IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

Mahfuza Gofurova,

(PhD), Senior Lecturer of Fergana State University,

mahfuzagofurova@gmail.com

Jahonbu Mamasoliyeva,

Master's Student of Fergana State University

Abstract: This article highlights on the issues of comprehensive support of independent thinking and creativity of students, improving their knowledge, skills and qualifications based on advanced foreign experiences and design work in mastering mathematics lessons in elementary grades and explaining, organizing and controlling them.

Key words: education, research, project, design, technology, teamwork, independent work skills, result

ЭФФЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Махфуза Гофурова,

PhD, старший преподаватель Ферганского государственного
университета,

Жаҳонбу Мамасолиева,

Магистрант Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы комплексной поддержки самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся, совершенствования их знаний, умений и квалификации на основе передового зарубежного опыта и проектной работы при освоении уроков математики в начальных классах и их объяснения, организации и контроля.

Ключевые слова: образование, исследование, проект, проектирование, технология, работа в команде, навыки самостоятельной работы, результат

KIRISH

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida Prezidentimiz farmoni qabul qilingan. Shu asosda sifatli ta’limni amalga oshirish uchun umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 1-4-sinflarida o’quvchilarni ilg’or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo’yicha o’qitish ko’zda tutilgan. Ko’rinib turibdiki, ta’limning sifatini oshirish omillaridan biri o’qitishning uslubiy ta’minotini yaxshilashdan iborat. Darslik va o’quv-uslubiy qo’llanmalar rivojlangan davlatlarning ilg’or tajribalarini tahlil qilgan holda yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Loyihalash texnologiyasining asosiy g’oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo’lgan muammoni hal etish jarayonida ko’zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo’lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo’lsa, amaliyotga qo’llash masalasi bo’yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. O’quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko’nikmalarini egallagan bo’lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo’llarini izlashlari bu borada avval o’zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog’lanishlarini tasavvur qilishlari zarur. Milliy dasturda bu borada 3-4 sinflarda quyidagi ishlarni amalga oshirish ko’zda tutilgan:

3-sinf

Katakli daftarda o’qqa nisbatan simmetrik shakllarni yasash. Berilgan rasm (chizma)lardan simmetriyaga oid shakllar yoki simmetrik qismlarni aniqlash. Ushbu usulda simmetriya o’qining mavjudligi yoki yo’qligini tekshirish.

Chiziqli va ustunli diagrammalar. Chiziqli va ustunli diagrammalar yordamida berilgan ma’lumotlar

Ma’lumotlarni turli ko’rinishda ifodalash. Turli ko’rinishda berilgan statistik ma’lumotlarni taqqoslash va ulardan foydalanib misol va masalalar yechish. Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy topshiriqlar. O’lchov birliklari tarixidan (chaqirim, qarich, tirsak, gaz, botmon)

4-sinf

Qirqma shakllar: Bir xil qismlardan tuzilgan har xil shakllar. Qirqma shakllar: buklanadigan ko'pburchaklarni yasash. Bir xil qismlardan tuzilgan har xil shakllar bilan tanishtirish.

Tasvirlarda ko'ringan va yashiringan elementlarni aniqlash. Tasvirlarda ko'ringan va yashiringan elementlarni aniqlash. Chizmada parallelepiped, kubning elementlarni sanash va bo'yash. Tekslilik va fazodagi grafik tasvirlar (2D, 3D).

Loyiha ishi. O'quvchi tomonidan amaliy hayot faoliyatidagi ma'lumotlar asosida (kun tartibi, oila a'zolarining qiziqishlari, oilaviy byudjet taqsimoti.....) jadval, grafik va diagramma tuzish.

NATIJALAR

Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Bunda guruhliy ishga ko'proq urg'u bergan ma'qul. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida konferensiya tarzida o'tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilarning individual yoki guruhliy ishi quyidagi o'quvfaoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin: o'z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlab olish, oldilariga o'quv maqsadlarini qo'yish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish, loyiha ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish.

Quyida guruhlariga bo'lingan holda, guruh a'zolari uchun quyida loyiha ishi uchun namunaviy topshiriqlar berib o'tamiz (4ta o'quvchidan iborat guruh uchun).


1-namunaviy topshiriq: 1-o'quvchiga quyidagilar topshiriq qilib beriladi.

Guruh nomi: Kichik tadqiqotchilar.

Guruh a'zolar soni : 4ta

1-a'zoning topshiriqlari

Mavzu bilan tanishtirish orqali taqdimotni boshlab beradi. Shakllar to'g'risida ma'lumot beradi. Ishni taqdim qilishda "Tangram" metodini tushintirib beradi va foydalanadi. Tasvirlarda ko'ringan va yashiringan elementlarni ya'ni shakllarni aniqlashga doir ishlab chiqqan topshiriqlarini beradi.



Tangram - bu 4000 yil oldin paydo bo'lgan qadimgi Xitoy boshqotirma o'yini.


Ushbu jumboqning mohiyati turli xil siluetlarning 7 ta geometrik tangram shakllarini yig'ishda, shuningdek, yangilarini ixtiro qilishda yotadi.

Tasavvur qiling-a, tangram elementlaridan 7000 ta turli xil birikmalar yasash mumkinligi taxmin qilinmoqda.

Jumboqni yechishda siz faqat 2ta qoidaga amal qilishingiz kerak: birinchisi - barcha 7 ta tangram figurasini ishlatishingiz kerak, ikkinchisi - raqamlar bir-biriga yopishmasligi kerak.

****Tangramdan qanday foydalanish kerak?****

Tangramni sxemalar bo'yicha katlama rivojlanishga yordam beradi






Topshiriq: Tasvirda ko'ringan va yashiringan shakllarni toping



MUHOKAMA

2-a'zoning topshiriqlari


Keyingi bosqichda fazoviy shakllar bilan tanishtiradi. Ulardan kub va parallelopipedni tanlab oladi va ularning elementlari haqida to'liq tushintirib beradi. Elementlarni sanash va ularni bo'yashga doir topshiriqlarni taqdim qiladi .



Kub


Parallelopiped

Topshiriq: Shakllarni sanang va ularni kerakli ranglarga bo'yang:



3-a'zoning topshiriqlari


Tekislikdagi grafik tasvirlar(2D) bo'yicha tushunchalar beradi va tayyorlagan topshiriqlarini namoyish qiladi.



2D shakli - bu o'lchamlari sifatida faqat uzunlik va balandlikka ega bo'lgan figura. Chunki 2D shakllar tekis sirt ustida yotadi, ular tekislik shakllari sifatida ham tanilgan. Ularda yuzalar mavjud bo'lsa-da, 2D shakllarning hajmi yo'q.


2D tasvirlar - bu odatda biz smartfonlarda ko'radigan yoki qog'ozga chizadigan tekis tasvirlar. Ular oddiy qog'oz varag'ida yoki bizning smartfonimiz ekranida aks ettirilishi mumkin

Topshiriq: 2D shakllarni sanang va kerakli rangga bo'yang





4-a'zoning topshiriqlari

Fazodagi grafik tasvirlar(3D) bo'yicha tushunchalar beradi va tayyorlagan topshiriqlarini namoyish qiladi.



3D — uch o'lchamli, ya'ni kengligi, balandligi va chuqurligi (uzunligi) bo'lgan narsani anglatadi. Bizning jismoniy muhitimiz uch o'lchovli va biz har kuni 3 o'lchamli fazoda harakat qilamiz. Odamlar ob'ektlar orasidagi fazoviy munosabatlarni faqat ularga qarash orqali idrok eta oladilar, chunki bizda chuqurlik idroki deb ham ataladigan 3 o'lchamli idrok mavjud.



Atrofga qaraganimizda, har bir ko'zdagi to'r parda atrofimizdagi ikki o'lchovli tasvirni hosil qiladi va miyamiz bu ikki tasvirni 3 o'lchamli vizual tasvirga aylantiradi.

Topshiriq: Shakllarni 2D va 3D tasvirlarga ajrating. 2D shakllarni yashil rangga, 3D shakllarni havorangga bo'yang.



XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kichik tadqiqotchilik ishlarini amalga oshirishda ulardagi kuzatuvchanlik, tasavvur doirasini kengaytirish, olingan bilimlarni kundalik hayotga qo'llash, bajarilayotgan ish doirasida hisob-kitob ishlarini amalga oshirish, natijalarni ko'ra olish va yakuniy hisobotlar asosida xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Bundan tashqari o'quvchilarning geometrik shakllar haqidagi dunyoqarashini mustahkamlaydi va kengaytiradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 2023-yil 28-fevral
2. Тожиев М., Алимов А.Я., Қучқаров Д.У. Педагогик технология таълим жараёнига татбиғи (Бошланғич таълимда математика ўқитиш методикаси фани дарсларининг лойиҳаси) -Тошкент. "Тафаккур" нашриёти. 2010, -148 б.
3. Muslimov, N., Usmonboeva, M., Sayfurov, D., & To'raev, A. (2015) Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Sano-standart.
4. Repyova I.R. 4-sinf Matematika. Darslik - T. "Novda Edutainment" nashriyoti 2023.

5. Alijon, A., Xoldorovich, S. Z., & Abbosovna, G. M. kizi, MMA.(2022). Technology of Individualization of Learning. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 291-297.
6. Gofurova, M. A. (2020). Development of students' cognitive activity in solving problems. ISJ Theoretical & Applied Science, 1(81), 677-681.
7. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(10), 236-242.
8. Gafurova, M. (2021). Intellectual and Cognitive Activities of School Pupils. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(2), 447-450.
9. G'ofurova Mahfuza Abbosovna. Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari. Fardu. ilmiy xabarlar-Научный Вестник. Фергу, 2023/№2, 67-71
10. Gofurova M.A. Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach / International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU) ISSN 2364-5369, Vol 8, No 10, October 2021 P. 236-242 (23)Scientifik Journal Impact Factor 2021:6.862)